


ЙИҒИЛИШ БАЁНИ

« 15 » Август 2022 йил

№ 55 сон

Риштон тумани



«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Риштон тумани Тиббиёт бирлашмаси

Рахбари _____ А.Усманов

Риштон тумани тиббиёт бирлашмасига Компютер ва Пиринтер сотиб олиш учун бюджет маблағлари ҳисобидан Компютер ва Пиринтер сотиб олиш учун ўтказилган электрон эълон натижалари тўғрисида

Раислик қилувчи: комиссия раиси:

А.Усманов

Қатнашдилар:

1. И.Эшматов

2. М.Икрамова

3. Б.Хусанов

4. С.Жалилов

Йиғилиш кун тартибида кўриладиган масала:

Риштон тумани тиббиёт бирлашмасига қарашли Компютер ва Пиринтер сотиб олиш учун бюджет маблағлари ҳисобидан Компютер ва Пиринтер сотиб олиш учун ўтказилган электрон эълон натижалари тўғрисида.

Риштон тумани тиббиёт бирлашмасига қарашли Компютер ва Пиринтер сотиб олиш учун бюджет маблағлари ҳисобидан Компютер ва Пиринтер сотиб олиш учун ўтказилган электрон эълонга раислик қилувчи А.Усманов сўзга чиқиб, ушбу элон Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли Давлат харидлари тўғрисидаги қонун асосида шаффоф ва ҳаққоний ўтканлигини айтиб ўтди. Шундан сўнг, Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли Давлат харидлари тўғрисидаги Қонунинг 62-модда 7-хат бошида кўрсатилганидек, Давлат буюртмачиси томонидан харид




комиссиясига такдим этилган муҳокама натижалари тўғрисидаги ахборот асосида харид комиссиясининг тегишли мажлиси баённомаси расмийлаштирилади ва имзоланган кундан бошлаб уч иш куни ичида давлат харидларининг электрон тизимига жойлаштирилиши лозим эканлигини яна бир бор такидлаб ўтди. Муҳокама муддати якунига етгандан сўнг бошқа қатнашчилар томонидан ҳеч қандай этирозлар келиб тушмаганлигини инобатга олган ҳолда йиғилиш хайъати:

Қарор қилади:

1. Муҳокама муддати якунига қадар бошқа қатнашчилар томонидан ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлигини инобатга олиб, "Оффике плюс " Х/К ни йиғилиш хайъати голиб деб элон қилсин.

2. Голиб деб топилган қатнашчи "Оффике плюс " Х/К билан қонунчиликда белгиланган тартибда шартномаларни расмилаштириб, маблағларни тўлаб бериш чоралари кўрилсин.

Комиссия азолари:

 И.Эшматов
 М.Икрамова
 Б.Хусанов
С.Жалилов

Hizmat ko'rsatish bo'yicha SHARTNOMA № 19

«15» Avgust 2022 yil

Rishton shaxri

Bizlarkim imzo chekib shartnoma tuzuvchilar kelgusida "Sotuvchi" deb ataluvchi xususiy korxonada "OFFICE PLYUS" nomidan, B.Ruzimatov bir tomondan va kelgusida "Xaridor" deb ataluvchi Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi nomidan A.Usmanov ushbu shartnomani imzolash bilan qo'yidagilar kelishildi.

SHARTNOMA MOXIYATI.

I.1. «Xaridorning»ning buyurtmasiga asosan "Sotuvchi" "Xaridorga"ga qo'yidagi maxsulotlarni etkazib beradi:

№	Maxsulot nomi	Ulchov birligi	Mikdori	Narxi	Summasi
1	Monoblok	Sht	2	7500000	15000000
2	Printer MFU	Sht	1	4000000	4000000
3					
4					
	Jami:				19000000

I.2. «Sotuvchi» ushbu shartnomaga asosan "Xaridor"ga o'zaro kelishilgan miqdorda va muddatlarda shartnomaning umumiy qiymatidan oshmagan summadagi maxsulotni etkazib beravdi, "Xaridor" maxsulotni qabul qilib olib, to'lov xujjatlarini amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirib, xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

II. SHARTNOMA BAXOSI, MAXSULOT ETKAZIB BERISH VA XISOB-KITOB TARTIBI

2.1 Mazkur shartnomaning umumiy qiymati 19 000 000 (On to'qqiz million) so'm QQS sizni tashkil etadi. Ko'rsatilgan maxsulotni shartnoma tuzish vaqtidagi miqdori, narxi va etkazib berish muddati ushbu shartnomada ko'rsatib o'tiladi.

2.2 "Sotuvchi" tegishli davrda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq belgilangan miqdorda yuqorida ko'rsatilgan maxsulotni etkazib beradi.

2.3 "Xaridor" "Sotuvchi" taqdim etgan xujjatlarga asosan uzil-kesil hisob-kitobni o'zaro kelishilgan muddatlarda "Sotuvchi" hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

2.4 "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor"ga mazkur shartnomaning umumiy qiymatidan ortiq summada hizmat ko'rsatgan holatlarda, shartnoma umumiy summasidan ortiq qismi uchun "Xaridor" tomonidan xaq to'lanmaydi.

2.5 "Xaridor" "Sotuvchi" ga beriladigan maxsulotning 30 foiz xaqini oldindan o'tkazib beradi, etkazib beriladi.

2.6 "Sotuvchi" etkazib berilgan maxsulot uchun "Xaridor"ga xujjatlarni taqdim qiladi "Xaridor" taqdim qilingan to'lov hujjatlariga asosan shartnomaning to'lovlar jadvali doirasida to'lovni amalga oshiradi.

III. SHARTNOMANI BAJARILISHI

3.1. Mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

3.2 "Xaridor" tomonidan maxsulot etkazilishining mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 3 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Talabnomani chopar orqali qabul qilishda "Sotuvchi"ning xodimi "Xaridor"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi quyadi.

3.3. "Xaridor" ilgari berilgan talabnomani bekor qilishga yoxud maxsulot etkazilish sanasini o'zgartirishga xaqlidir, bu xaqda "Sotuvchi"ni talabnomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 20 kun oldin xabardor qiladi.

3.4. "Xaridor" muddatlar buzilgan holda etkazib berilgan maxsulotni qabul qilishni rad etishga xaqlidir.

3.5. "Xaridor" "Sotuvchi" tomonidan maxsulot o'z vaqtida etkazib berilmagan yoki sifatsiz maxsulot etkazib bergan holatlarda shartnomani "Sotuvchi"ni yozma xabardor qilgan xolda bir tomonlama bekor qilishi mumkin. Qolgan holatlarda shartnoma shartlariga tegishli o'zgartirishlar tomonlarning o'zaro qo'shimcha kelishuvlariga muvofiq kiritiladi.

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

"Sotuvchi"ning majburiyatlari:

4.1. "Sotuvchi" etkazib berilgan maxsulotni sifatli qonunga asosan kafolatlaydi. Sifatsiz maxsulot aniqlansa, usha paytning o'zida aniqlangan kamchilik bartaraf etiladi.

"Xaridor"ning majburiyatlari:

4.2. O'z talabnomasi bo'yicha etkazib beriladigan maxsulot mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish.

4.3. SHartnomani byudjetdan mablag' oluvchi muassasa tomonidan bir tomonlama buzishga xaqlidir.

V. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Maxsulot etkazish muddatlari kechiktirib yuborilgan, maxsulot to'liq etkazilmagan hollarda, "Sotuvchi" "Xaridor"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilayotgan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash "Sotuvchi"ni maxsulot etkazish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq etkazib bermaslik oqibatida etkazilgan zararni koplashdan ozod etmaydi.

5.2. Qandaydir sabablarga ko'ra kelishilgan maxsulot yoki bajaruvchini hisob raqamiga pul tushmay qolsa, har bir kechiktirilgan kun uchun umumiy summani 0,4 % miqdorida penyaning umumiy summasi etkazib berilayotgan maxsulot baxosining 50 % dan oshib ketmasligi lozim.

VI. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita **Iqtisodiy** sudiga murojaat qilishga xaqlidir.

VII. FORS-MAJOR

7.1. Fors-major holatlar, jumladan er qimirlashi, sel kelishi kabi tabiiy ofatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Huqumati tomonidan yangi qonun va qarorlarni qabul qilinishi natijasida kelib chiqadigan holatlarda taraflar mazkur shartnoma va qo'shimcha kelishuvlar shartlarini bajarish mas'uliyatini o'z zimmlariga olmaydilar.

VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

8.1. Mazkur shartnoma "Xaridor", "Sotuvchi" tomonidan tasdiqlangandan sung kuchga kiradi va 2022 yil "15" 08 dan 2022 yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va xisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda tuxtatiladi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyatini oladilar me'yoriy hujjatlarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni bir-birining tomonlari yoki davlat mansabdor shaxsiga pora berish yoki vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy manfaatlardan qochish kerak. Tomonlar bunday xatti-harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydi.

9.2. Korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari buzilganligi yoki asosli shubha tug'ilganligi to'g'risida tomonlar darhol yozma ravishda xabardor qilishlari shart. Bir-birlarini shaxsan (electron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyati oladi. Bunday holda, tomonlar vaziyatni aniqlashtirish uchun yozma tushuntirishni talab qilishga haqli. Mulkdor va murojaatni qabul qilgan tomon 10 (o'n) ish kuni ichida tushuntirish berishga yoki o'z fikrini bildirishga majburdir.

9.3. Ushbu bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan korrupsiya xavfini belgilangan muddatlarda bartaraf etilmagan taqdirda taraflar tomonidan ko'rilgan choralar korrupsiya holatining pasayishiga olib keladi. Aks holda, boshqa tomon shartnomani bekor qilishga yoki uning bajarilishini to'xtatib qo'yishga haqli.

9.4. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqni Rasmiylashtirish sanasi Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

9.5. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

IX. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi. SHartnomaning ikkala nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

IX. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

«XIZMAT KO'RSATUVCHI»

«OFFICE PLYUS» xususiy korxonasi

(mol etkazib beruvchining nomi)

«XARIDOR»

Rishton tuman Tibbiyot Birlashmasi

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Rishton shaxri
h/r: 20208000300898749001
Bank nomi "Agrobank"

Rishton bo'limi

MFO: 00519 STIR: 305634250

Manzil: Ar-Roshidoniy 276-uy

Tel./faks
sh/hr: 100022860302247073101054002
STIR: 200181854 MFO: 00014
OKONX 91511
Bank nomi: Toshkent markaziy banki
Rishton G'aznachilik bo'linmasi
INN 201122919




Rahbar

(imzo)

B.Ruzimatov

(f.i.sh.)

M.O.



Rahbar

(imzo)

A.Usmanov

(f.i.sh.)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ LU7403127082

1. Loyihaning turi: ShARTNOMA № 19

2. Loyihaning nomi: **kompyuter buyumlari etkazib berish to'g'risida**

Umumiy summasi 19 000 000 (o'n to'qqiz million) so'm bo'lgan kompyuter buyumlari etkazib berish yuzasidan OFFICE PLYUS xususiy korxonada B.Ruzimatov va Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi rahbari A.Usmanovlar o'rtalarida tuzilgan shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Shartnoma loyihasi "OFFICE PLYUS" xususiy korxonadan ishlab chiqilgan va Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun qayta 11.08.2022 yilda kiritgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Loyiha O'zbekiston Respublikasining 20.08.1998 yilgi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2018 yilgi "Davlat haridlari to'g'risida" gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 3953-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi 8-bandi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



M.Umarov